

YOSHLARNING AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Abdullajonova Navbahor Baxtiyor qizi

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti,
Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Kamolova Azima Odiljon qizi (Ilmiy rahbar)

Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o‘rni haqida qarashlar bayon etilgan. Bundan tashqari zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi va intrnet tarmog‘idan ma‘lumotlar olish, imkoniyatining kengayishi yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ta‘lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ayrim muammolarni ham keltirib o‘tilgan.

Kalit So‘zlar: Internet, global, virtual olam, axborot, kommunikativ, OAV. taraqqiyot. axborot hujumi, iste‘mol, madaniyat, savodxonlik.

Abstract: This article describes the current problems in the use of information among young people and the unique methods of forming information culture, views on its role in the development of young people. In addition, in modern conditions, the rapid development of information and communication technologies and the expansion of the possibility of obtaining information from the Internet are of great importance in the formation of the scientific worldview of young people, as well as some problems that have a negative impact on the educational process. cited.

Key Words: Internet, global, virtual world, information, communication, mass media. development. information attack, consumption, culture, literacy.

Аннотация: В данной статье описаны современные проблемы использования информации среди молодежи и уникальные методы формирования информационной культуры, взгляды на ее роль в развитии молодежи. Кроме того, в современных условиях большое значение в формировании научного мировоззрения молодежи имеют стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий и расширение возможностей получения информации из сети Интернет, а также некоторые проблемы, имеющие негативное влияние на учебный процесс.

Ключевые слова: Интернет, глобальный, виртуальный мир, информация, коммуникация, средства массовой информации. разработка. информационная атака, потребление, культура, грамотность.

Bugun biz tez suratlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda avvalo kelajak rejalarini qurib, unda albatta yoshlarga e'tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri bu shubhasiz yoshlardir. Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makoni juda keng imkoniyatlar yaratib berishi bilan birgalikda zararli axborot shaklidagi katta xavfni shakllantirmoqda. Bunda yoshlar kelajagiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazuvchi omillardan ularni asrab avaylash uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini shakllantirish zarur bo'lib, o'z navbatida bu jamiyat siyosiy savodxonligi darajasiga ham yuqori darajada o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Insoniyat ertangi kun uchun kurashar ekan bunda yosh avlodning munosib davomchisi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning mas'ullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo'yilayotgan maqsadlar ularda qat'iy rioya qilinishi talab etiladigan me'yorlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar axborot iste'molchisi sifatida avvalo axborot tasnifini anglashi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanganda talab etiladigan me'yorlarni to'liq anglab yetishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar bugungi kun talabidir.

Mazkur masalada, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar esa tahsinga loyiqdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz safatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.” deb ta'kidlaganida yoshlar orasida har qanday ijtimoiy xavf keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish nazarda tutilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda yoshlar nafaqat o'quv dargohlarida, balki, radio-televediniya, matbuot, intrnet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayaib borayotgan shunday bir sharoitda yoshlarning ongini to'g'ri axborot bilan boyitish, ularda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va umuman texnika olami inson hayotida tobora kengroq va mustahkamroq o'rin olib borayotgan bir zamonda “axborot iste'moli madaniyati” muammosining yanada dolzarflik kasb etishi sir emas. Zero, iste'mol madaniyati inson ma'naviy olamining ajralmas qismi ekan, inson ma'naviyatini shakllantirish, axborotni to'g'ri yetkazish va qabul qilish ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vazifa bo'lib qolaveradi. Bunda esa kitobxonlik madaniyati ko'mak beradi. O'quvchi

yoshlar har qanday axborotni o'qiganda unga ongli, eng muhimi, estetik munosabat bildira oladigan, undan to'g'ri foydalanadigan darajada yetishi uchun birinchi navbatda ko'p kitob o'qishi, o'qilganda ham kitob zavq bilan o'qilishi, kitobxon undan tegishli huzur va ruhiy qanoat tuyishi kerak. Buni ixcham tarzda-estetik to'yinish deb atash mumkin. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi va intrnet tarmog'idan ma'lumotlar olish, imkoniyatining kengayishi yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda:

1. Intrnet tarmog'idan noto'g'ri foydalanish, turli to'g'ri-noto'g'ri ma'lumotlarni o'qish, unga ishonish;

2. Bugun axborot iste'molchilarining kattagina qismini o'ziga og'dirib ulgurigan ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, ko'pincha ma'lum guruhlar yoki foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilishi. Bunday axborotlarning shakli, mazmuni, hajmi turlicha bo'lish bilan birga ko'pincha manba tekshirilmasdan tarmoqqa qo'yilishi. (Misol, ushbu holatni rasmiy saytlar misolida ko'rganimizda, ularda birinchi axborot manbalaridan ko'ra havola(link)li xabarlar ko'pligi);

3. Global tarmoq texnologiyalarining iste'molga kirib kelish tushunchasi va uni taqdim etish haqidagi ming yillik tasavvurlarni butunlay o'zgartirib yuborilishi. Avvalari keng jamoatchilik asosiy axborotni faqat OAV orqali qabul qilgan bo'lsa, bugun auditoriyaning o'zi ham axborot yetkazuvchi “xabarchi”larga aylanishi;

4. Jurnalistika olamida hamma davrlarda ham noto'g'ri axborot xolis, ob'yektiv,sifatli, axborot bilan yonma-yon yashashi. Ayniqsa, bugungi kundagi noto'g'ri axborotning salmoqli qismi intrnet hissasiga to'g'ri kelishi. Ayni paytda milliy jurnalistikada virtual axborot oqimini tartibga soluvchi huquqiy asosning yo'qligi va tegishli qonunchilik hujjatlari hali bu sohani yetarlicha qamrab olmaganini noto'g'ri axborotning tarqalishiga yaxshigina zamin yaratishi:

Intrnet cheksiz-chegarasiz axborot manbaidir. Ammo bu axborotlar to'g'ri yoki noto'g'riligini qanday farqlash mumkin? Qanday axborotlardan ehtiyot bo'lish, qaysilariga ishonish kerak? Umuman intrnetdagi axborotning to'g'riligiga kim mas'ul? Bu kabi savollar juda ko'p va ular sohaning rivojiga jiddiy yondashuvni taqozo qilyapti. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi “axborot madaniyati” o'zi nima? Axborot madaniyati muloqotning yangi turi bo'lib, u shaxsga mavjud bo'lgan axborotga erkin kirish imkonini beradi. Axborotdan chiqish va undan foydalanish erkinligi globaldan mahalliygacha bo'lgan barcha darajalarda, chunki axborotning milliy, davlat ichidagi turi milliy fan kabi asossizdir. Shaxs axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri axborot resurslarini bilishdir (iloji bo'lsa, ulardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish) Mamlakatimizda axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan ko'plab tashkilotlar shug'ullanadi: kutubxonalar, statistik markazlar, axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalari. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki birinchi marta “axborot

savodxonligi” tushunchasi 1977-yilda AQShda kiritilgan va oliy ta’limni isloh qilish milliy dasturida qo’llangan. Har narsaning yaxshi va yomon tomoni bo’lgani kabi so’ngi yillarda internetning ham jiddiy hatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg’unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o’zlarining g’arazli maqsadlari yo’lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o’z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ’ib etilayotgani, shuningdiki, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg’on ma’lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir... Globallashuv davrida axborotlar oqimi bois yoshlar keng bilimga ega bo’lish barobarida tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarga duch kelmoqda. Ularni axborot hurujidan asrash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Hozirgi yoshlar uchun global axborot kommunikatsiya muhiti kundalik hayotning muhim elementiga aylanib ulgurgan. Yoshlar internetda nafaqat faol muloqot qiladi, balki ko’plab hizmatlarni ham o’zlashtirmoqda, ular esa boshqa internet foydalanuvchilariga qaraganda faolroq, turmush aloqasining turli vositalarini tezroq o’zlashtirmoqda. Zamomanamiz yoshlarining ayrimlari turmush tarzi ko’p jihatdan haqiqiy emas, virtual dunyo ta’siri ostida shakllanmoqda. Bugungi kunda global tarmoqlar orqali yoshlar jamiyatidagi xulq-atvor namunalari, turmush tarzi, hayotdagi muvaffaqiyat standartlari va unga erishish yo’llari e’fira uzatilmoqda. Global ijtimoiy tarmoqning ta’lim vositasi sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yurtimizda ham viloyat va tumanlar kesimida bir qancha tadqiqot va so’rovnomalar o’tkazilmoqda. Ushbu maqsad doirasidagi tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarning global axborotdan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish, O’zbekistondagi internetning kommunikativ muhiti;
2. Internet muhitida yoshlarning xohish-istaklari va xulq-atvorini o’rganish metodikasini ishlab chiqish;
3. Yoshlarning internetdagi faolligini baholash;
4. Global axborotda yoshlarning kommunikativ faoliyatining o’ziga xos shakllarini o’rganish aloqa maydoni;
5. Yoshlarning internet muhitidagi afzalliklari va xatti-harakatlarini o’rganish.

Zamonaviy yoshlarning muloqot muhitini shakllantirish jarayonini o’rganish uchun yoshlar o’rtasida doimiy so’rovlar amalga oshirilmoqda. Internetning ta’sirini baholash uchun ko’pincha anketa savolidan foydalanishadi:

“Sizningcha, hozirgi vaqtda internetning axborot muhiti odamlarning fikriga qanchalik ta’sir qiladi?”. Aksariyat odamlar internetning odamlar fikriga ta’sirining “yuqori” darajasiga qo’shiladilar. Respondetlarning 80%dan ortig’i esa “kuchli ta’sir qiladi” javoblarini tanlaganlar. Respondetlarning atiga 4% internetning-kam ta’siri bor deb hisoblaydilar. Yoshlarning internetdagi faolligi internetda kuniga o’rtacha vaqt sarflashi va ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish vaqti bilan baholandi. Yoshlarning atiga 8% qismi(1-jadval) internetda kuniga 1 soat yoki undan kam vaqt sarflaydi, chorak qismi

esa 3soatgacha vaqt, qolgan qismi esa 5-6 soatdan ko'p vaqtini internetda sarflashar ekan. Yoshlar ko'p vaqtini internetda ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish uchun o'tkazadilar.

(1-jadval)

Anketa savollari	Taxminan 1,5soat	2 soat davomida	Uzluksiz 3 soat mobaynida	3 soatdan 4soatgacha	5 soat davomida	6soatdan ortiq
Kuniga o'rtacha qancha vaqt internetda ishlashga sarflaysiz?	8%	11%	24%	19%	15%	23%
Ijtimoiy tarmoqlarga kuniga o'rtacha qancha vaqt sarflaysiz?	6%	16%	33%	19%	11%	15%

Ko'pgina yoshlar bir vaqtning o'zida virtual muloqotga bo'lgan ishtiyoq ularni sudrab ketishini va hech qanday foyda olmasliklarini bilishadi. “Internetda o'tkazgan vaqtingizni behuda vaqt deb hisoblaysizmi?” degan savolga yoshlar quyidagicha javob berishdi:

1. “Ha”-10%
2. “Yo'qdan ko'ra ha”-42%
3. “Balki”-22%
4. “Yo'q”-26%

Ya'ni so'rovda qatnashganlarning yarmi internetda o'tkazgan vaqtini ko'pincha behuda vaqt deb hisoblash mumkin degan fikrga qo'shiladilar. Bundan xulosa qilish mumkinki, yoshlar internetda davlat xizmatlaridan faol foydalanmaydilar, balki ijtimoiy tarmoqlarda vaqtlarini o'tkazadilar. Ko'rinib turibdiki, yoshlarga qaratilgan davlat xizmatlari ko'lamini kengaytirish zarur. Internetning yoshlarga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun yoshlarning internetdagi xatti-harakatlari bo'yicha tizimli tadqiqotlarni kengaytirish zarur. Olingan bilimlarni hisobga olgan holda internetda yoshlarga mo'ljallangan kontetni ishlab chiqish zarur, aks holda bu joyni mamlakatimizga dushman kuchlar egallaydi.

Bundan tashqari axborat madaniyati samarali shakllantirish ta'lim vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

- Shaxs dunyoqarashini kengligiga, uning xabardorligi o'lchoviga ta'sir qiladi;
- Mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi, fikrlashni rivojlantiradi;
- Tolerantlikni, dunyoqarashning plyuralizmini rivojlantirishga yordam beradi;
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali shaxsga ta'sir qiladi;

- Axborat intellektini rivojlantiradi.

Mustaqil O'zbekiston yoshlari rivojlangan texnologiyalar asrida munosib ishtirokchi bo'lib, mazkur sohaga taalluqli barcha mahsulot va vositalardan keng qamrovda foydalanishmoqda. Bu jarayon o'z navbatida axboratdan foydalanish bo'yicha madaniy ko'nikmalarni ijtimoiylashtirish orqali ularning yosh va dunyoqarashidan kelib chiqib axborat iste'molini rivojlantirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet vositalari yoshlarni tarbiyalashda ularning estetik didlarini o'stirishga va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qila oladi. Biroq buning uchun filmlarda odamzodga xos bo'lgan turli illatlar emas, balki ezgu fazilatlar ulug'lanishi kerak. Chunki ekranga termulib o'tirgan bolaning xali shakllanib ulgurmagan dunyoqarashi birgina noto'g'ri axborot tufayli butunlay o'zgarib ketishi mumkin. “Bolaning tarbiyasi nozik bo'ladi, u yaxshidan ham, yomondan ham ko'rgani oladi.” deb xalqimiz bejizga aytmagan. Haqiqatdan ham, bolaga “yaxshi bo'l”, degan bilan u eshitganini emas, balki ko'rganiga amal qiladi. Yana shu o'rinida aytish mumkinki, yoshlarni tarbiyasida uning yuksak ma'naviyatli, axborot madaniyati iste'molida mustahkam ma'naviy immunitetga ega, Vatan va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida hamda puxta bilim egasi qilib tarbiyalab borishimiz lozim. Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamning daxlsizligi asrash asosiy vazifalardan biridir. Zero, yoshlar ma'naviyatiga daxldor yumushlarga beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Antonova.I.M, Yu.S.Zubov// Axborotlashtirish va gumanitar ta'lim muammolari: referat.hisobot // 1995-yil
2. Dulatova.A.N// Shaxsning axborot madaniyati// darslik// 2005-yil
3. Lopatina.N.V// Axborot madaniyati ijtimoiy texnologiyalar samaradorligining sharti sifatida//darslik// 2002-yil
4. Semunyuk.E.P.// Jamiyatning axborot madaniyati va informatika taraqqiyoti// darslik// 1994-yil
5. Камолова Азимахон Одилжон қизи. (2024). ИСЛОМ ДИНИ ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТДАГИ АМАЛИ АХАМИЯТИ. Results of national scientific research international journal, 3(1), 201–207. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10581873>
6. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.
7. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. *Science and Education*, 5(1), 287-291.

8. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.
9. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
10. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.